UDC (UO‘K, УДК):82.091

JAHON FANTASTIK ADABIYOTDA EKOTANQID NAZARIYASI[3]

Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna
Alfraganus University NOTT
Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Tashkent, O‘zbekista
E-mail: shaxnozayuldoshova1991@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-9553-6353

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiyotshunoslikning XX asr oxirida shakllangan yo‘nalishi ekotanqidnazariyasi metodologik asos sifatida qo‘llanilib, badiiy adabiyot, xususan fantastik va spekulyativ adabiyot namunalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy poydevorini Cheril Glotfelti va Lourens Buellning ekotanqid ta’riflari, Greg Gerrardning “yaylovlashuv”va “yovvoyi tabiat” (wilderness) tushunchalari, Darko Suvinning “kognitiv begonalashuv” va “novum” nazariyasi, Serenella Iovino va Serpil Oppermannning “moddiy ekotanqid” va antroposen kontseptsiyasi, shuningdek Amitav Goshning iqlim inqirozi haqidagi falsafiy qarashlari tashkil etadi. Amerika fantastik adabiyotidan Frenk Herbertning “Dyuna”, Ursula Le Guinning “Dunyoning nomi – O‘rmon” (The Word for World is Forest), Kim Stenli Robinsonning “Mars trilogiyasi” tahlil qilingan. Rus adabiyotidan aka-uka Strugatskiylarning “Yo‘l chetidagi sayr”(Пикник на обочине), Valentin Rasputinning “Matyora bilan vidolashuv” (Прощание с Матёрой) va Sergey Zaliyginning “Ekologiya romani” (Экологический роман) asarlari, shuningdek ular yuzasidan olib borilgan o‘zbek, xorijiy va rus adabiyotshunosligi tadqiqotlari tahlil qilib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fantastik adabiyot janr xususiyati kognitiv begonalashuv va “novum” orqali ekologik muammolarni badiiy tasavvur qilishning o‘ziga xos, boshqa janrlarga nisbatan ustunroq imkoniyatiga ega, biroq bu imkoniyatning ilmiy o‘rganilish darajasi amerika, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida notekis rivojlangan.

KALIT SO‘ZLAR

Ekotanqid, fantastik adabiyot, spekulyativ badiiyat, iqlim fantastikasi (cli-fi), kognitiv begonalashuv, novum, antroposen, ekofeminizm, moddiy ekotanqid, qiyosiy adabiyotshunoslik.

Received: July 31, 2026
Accepted: August 12, 2026
Available online: October25, 2026

[3] **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**
Yuldoshova Sh. Jahon fantastik adabiyotda ekotanqid nazariyasi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 5(13) — B. 43-60.

THE THEORY OF ECOCRITICISM IN WORLD SCI-FI LITERATURE

Yuldoshova Shakhnoza Azimboyevna
Doctor of Philosophy in Philological Sciences
Acting Associate Professor
at the Department of Foreign Languages,
Alfraganus University,
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: shaxnozayuldoshova1991@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-9553-6353

ABSTRACT

This article analyzes works of fiction, particularly speculative and science fiction, using the theory of ecocriticism, a field of literary studies that emerged in the late 20th century, as its methodological basis. The theoretical foundation of the research is built upon Cheryll Glotfelty and Lawrence Buell's definitions of ecocriticism; Greg Garrard's concepts of "pastoral" and "wilderness"; Darko Suvin's theory of "cognitive estrangement" and "novum"; Serenella Iovino and Serpil Oppermann's concepts of "material ecocriticism" and the Anthropocene; as well as Amitav Ghosh's philosophical views on the climate crisis. From American science fiction, Frank Herbert's "Dune", Ursula K. Le Guin's "The Word for World is Forest", and Kim Stanley Robinson's "Mars Trilogy" are analyzed. From Russian literature, the Strugatsky brothers'"Roadside Picnic" (Пикник на обочине), Valentin Rasputin's "Farewell to Matyora" (Прощание с Матёрой), and Sergey Zalygin's "An Ecological Novel" (Экологический роман) are examined, alongside existing Uzbek, foreign, and Russian literary scholarship on these works. The research findings indicate that, through its genre features of cognitive estrangement and "novum," science fiction possesses a unique potential for the artistic representation of ecological problems that is superior to other genres; however, the extent to which this potential has been academically explored is unevenly developed across American, Russian, and Uzbek literary studies.

KEYWORDS

Ecocriticism, fantastic literature, speculative fiction, climate fiction (cli-fi), cognitive estrangement, novum, Anthropocene, ecofeminism, material ecocriticism, comparative literature.

ТЕОРИЯ ЭКОКРИТИКИ В МИРОВОЙ ФАНТАСТИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Юлдошова Шахноза Азимбоевна
доктор философии по филологическим наукам,
и.о. доцента кафедры иностранных языков
Университет Alfraganus,
Ташкент, Узбекистан
E-mail: shaxnozayuldoshova1991@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-9553-6353

АННОТАЦИЯ

В статье художественные произведения в жанре спекулятивной и научной фантастики рассматриваются с позиций экокритики, выступающей методологической основой исследования. Теоретическую базу составили определения экокритики, предложенные Шерил Глотфелти и Лоуренсом Бьюэллом; концепции «пасторали» и «дикой природы» Грега Гарарда; теория «когнитивного остранения» и «новума» Дарко Сувина; концепции «материальной экокритики» и антропоцена Серенеллы Иовино и Серпиль Опперманн, а также философские взгляды Амитаву Гоша на проблему изменения климата. В американской научной фантастике анализируются роман Фрэнка Герберта «Дюна», повесть Урсулы К. Ле Гуин «Слово для леса и мира одно» и «Марсианская трилогия» Кима Стэнли Робинсона, в русской литературе рассматриваются повесть братьев Стругацких «Пикник на обочине», повесть Валентина Распутина «Прощание с Матёрой» и «Экологический роман» Сергея Залыгина. Кроме того, анализируются узбекские и зарубежные, в том числе российские, литературоведческие исследования, посвящённые данным произведениям. Результаты исследования показывают, что благодаря таким жанровым особенностям, как когнитивное остранение и «новум», научная фантастика обладает значительным потенциалом для художественного осмысления экологических проблем, однако степень его научной изученности неодинакова в американском, российском и узбекском литературоведении.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Экокритика, фантастическая литература, спекулятивная фантастика, климатическая фантастика (cli-fi), когнитивное остранение, новум, антропоцен, экофеминизм, материальная экокритика, сравнительное литературоведение.

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ekologik inqirozning kuchayib borishi global isish, o‘rmonlarning qisqarishi, suv resurslarining tanqisligi, atmosfera va okean ifloslanishi nafaqat tabiiy fanlarda, balki gumanitar bilim sohalarida ham insonning tabiatga munosabatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Ushbu jarayon natijasida adabiyotshunoslikda yangi metodologik yo‘nalish ekotanqid (inglizcha “ecocriticism”, ba’zi manbalarda “ekokritisizm”) shakllandi. Amerikalik adabiyotshunos Jozef Miker o‘zining “Omon qolish komediyasi: adabiy ekologiya bo‘yicha tadqiqotlar” (The Comedy of Survival: Studies in Literary Ecology, 1972) asarida “*adabiy ekologiya*” (literary ecology) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lsa, “ekotanqid” atamasining o‘zini birinchi marta Uilyam Rukert 1978-yilda “Adabiyot va ekologiya: ekotanqidchilikdagi tajriba” (Literature and Ecology: An Experiment in Ecocriticism) nomli maqolasida qo‘llagan va uni “*ekologik tushunchalarni adabiyotni o‘rganishga tatbiq etish*” sifatida ta’riflagan. Biroq bu atama 1989-yilgacha, ya’ni Cheril Glotfelti uni Amerika G‘arbiy Adabiyot Assotsiatsiyasining yig‘ilishida qayta jonlantirib, mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida taklif etguncha, ilmiy muomalada deyarli qo‘llanilmagan.

1996-yilda Cheril Glotfelti va Harold From tomonidan nashr etilgan “Ekologik tanqid mutolaasi: adabiy ekologiyaning muhim bosqichlari”(The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology) to‘plami sohaning metodologik asoslarini mustahkamlagan dastlabki yirik ilmiy ish sifatida tan olingan. Glotfelti ekotanqidni *“adabiyot va jismoniy muhit o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan fan*” sifatida ta’riflaydi (Glotfelty C., 1996, xviii). Xuddi shu davrda Lourens Buell “Ekologik tafakkur: Toro, tabiatshunoslik va Amerika madaniyatining shakllanishi” (The Environmental Imagination: Thoreau, Nature Writing, and the Formation of American Culture, 1995) asarida amerika *“tabiat yozuvi*” (nature writing) an’anasini tahlil qilib, ekologik adabiyotning to‘rtta asosiy belgisini ajratadi: *birinchidan, tabiat matnda shunchaki fon emas, balki markaziy element sifatida tasvirlanadi; ikkinchidan, inson manfaati yagona qonuniy manfaat emasligi ko‘rsatiladi; uchinchidan, insonning tabiat oldidagi axloqiy mas’uliyati matn strukturasining bir*

qismiga aylanadi; to‘rtinchidan, matn atrof-muhitning statik emas, balki jarayon ekanligini nazarda tutadi (Buell L., 1995, 7-8). Ushbu to‘rt mezon keyinchalik dunyo bo‘ylab ekotanqidiy tahlilning amaliy mezoniga aylandi.

Ekotanqid nazariyasining rivojlanishida Britaniyalik adabiyotshunos Greg Gerrardning “Ecocriticism” (2004) darsligi alohida o‘rin tutadi. Gerrard pastoral adabiyot an’analarini tahlil qilib, uni *“kamroq murakkab, ko‘proq uyg‘un turmush tarziga qaytish”* sifatida belgilaydi (Garrard G., 2004, 33), shuningdek “*yovvoyi tabiat*” (wilderness) tushunchasining o‘zi insoniyat tafakkuri va madaniyati tomonidan shakllantirilgan konsept ekanligini, ya’ni *“madaniy konstruksiya”* ekanligini asoslaydi (Garrard G., 2004, 59). Bu qarash ekotanqidning muhim metodologik tamoyilini tabiat obrazining o‘zi ham tarixiy va madaniy jihatdan shartlangan ekanligini ochib beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ekotanqid nazariyasi jahon miqyosida tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uning fantastik va spekulyativ adabiyotga (ilmiy fantastika, distopiya, climate fiction) tatbiq etilishi nisbatan kam o‘rganilgan soha bo‘lib qolmoqda. Ayni paytda, fantastik adabiyotning o‘ziga xos janr xususiyati kelajakni yoki muqobil dunyoni tasavvur qilish qobiliyati ekologik muammolarni badiiy anglashning alohida samarali vositasi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ekotanqid nazariyasining rus va o‘zbek adabiyotshunosligidagi holati, garchi so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda birinchi tadqiqotlar paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, hali yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu boisdan amerika, rus va o‘zbek adabiy-ilmiy tajribasini qiyosiy tahlil qilish nafaqat nazariy, balki milliy adabiyotshunoslik uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi ekotanqid nazariyasining asosiy tushunchalari bo‘lmish, Glotfelti-Buell ta’riflari, Garrardning pastoral/wilderness tahlili, Suvinning kognitiv begonalashuv nazariyasi, Iovino-Oppermannning moddiy ekotanqidi kabilar yordamida amerika, rus va o‘zbek adabiyotidagi fantastik janrdagi asarlarni qiyosiy tahlil qilish hamda ekotanqid nazariyasining milliy adabiyotshunosliklardagi rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Ekotanqid nazariyasi taraqqiyotida bir necha “to‘lqin” ajratiladi. Birinchi to‘lqin (1990-yillarning boshi) asosan pastoral adabiyot, tabiat yozuvi va “yovvoyi tabiat” estetikasiga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi to‘lqin ekologik adolat va atrof-muhit degradatsiyasining ijtimoiy-siyosiy o‘lchamlariga e’tibor qaratdi. Buell buni shunday ta’riflaydi: “*ikkinchi to‘lqin ekotanqidi ekologik adolat masalalari va atrof-muhit degradatsiyasining sotsiotsentrik o‘lchamlarini ko‘proq ta’kidlash tendentsiyasiga ega bo‘ldi*” (Buell L., 2005, 112). Uchinchi to‘lqin esa transmilliy va qiyosiy yondashuvni, to‘rtinchi to‘lqin (2010-yillardan) esa moddiy ekotanqid va postgumanistik nazariyalarni o‘zida mujassam etadi.

Ushbu so‘nggi bosqichda italyan-turk adabiyotshunoslari Serenella Iovino va Serpil Oppermann tomonidan ishlab chiqilgan “*moddiy ekotanqid*” (material ecocriticism) nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular *“antroposen”* tushunchasini insoniyat Yer sayyorasining geologik kuchiga aylangan davrni adabiy tahlilga tatbiq etib, quyidagicha ta’riflaydilar: “Antroposen bu insoniyat geologik kuchga aylangan davrdir” (Iovino S., Oppermann S., 2014, 1). Ularning nazariyasiga ko‘ra, moddiy dunyo (suv, tuproq, havo) passiv obyekt emas, balki o‘zi “ma’no ishlab chiqaruvchi” faol kuch hisoblanadi bu qarash ekologik falokatlarni insoniyatga “javob qaytaruvchi” moddiy voqelik sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Hind-amerikalik yozuvchi va mutafakkir Amitav Gosh o‘zining “Buyuk tartibsizlik: iqlim o‘zgarishi va aql bovar qilmaydigan hodisalar” (The Great Derangement: Climate Change and the Unthinkable, 2016) asarida zamonaviy adabiyot, xususan realistik roman janri, iqlim o‘zgarishi kabi globalmiqyosli ekologik hodisalarni badiiy ifodalashda nima uchun ojiz qolganini tahlil qiladi. Uning ta’kidlashicha*, “iqlim o‘zgarishi madaniyat inqirozi, demak, tasavvur inqirozidir*” (Ghosh A., 2016, 9). Gosh nazariyasiga ko‘ra, aynan shu “tasavvur bo‘shlig‘i”ni to‘ldirishga *climate fiction* (cli-fi) janri harakat qiladi bu esa fantastik va spekulyativ adabiyotning ekotanqid nuqtayi nazaridan nima uchun alohida tahlil obyektiga aylanishi zarurligini asoslaydi.

Ekofeminizm yo‘nalishi vakillari Vandana Shiva va Mariya Mis ayollar va tabiatning bir xil ekspluatatsiya tizimi ostida ekanligini ta’kidlab, quyidagi nazariyotni ilgari suradilar: “*ayollarning genderga bog‘liq holda hukmronlik ostida bo‘lishi bilan tabiatning hukmronlik ostida bo‘lishi o‘rtasida muhim bog‘liqlik mavjud*” (Shiva V., Mies M., 1993, 13). Bu yo‘nalish ekotanqidga gender tahlilining muhim o‘lchovini qo‘shadi va xususan, fantastik adabiyotdagi ekologik distopiyalarni tahlil qilishda samarali qo‘llaniladi.

Fantastik (ilmiy-fantastik) adabiyotning ekologik mazmunni ifodalashdagi o‘ziga xos imkoniyatini tushunish uchun yugoslaviyalik-kanadalik adabiyotshunos Darko Suvinning “Ilmiy fantastikaning evrilishlari: adabiy janr poetikasi va tarixi haqida” (Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre, 1979) asarida ishlab chiqilgan “*kognitiv begonalashuv*” (cognitive estrangement) nazariyasi muhim metodologik asos beradi. Suvin ilmiy fantastikani “*kognitiv begonalashuv adabiyoti*” sifatida ta’riflab, uning markazida “**novum**” hikoyaning butun mantig‘ini belgilovchi, ilmiy asoslangan yangilik yoki uzilish turishini ko‘rsatadi. Novum orqali o‘quvchi o‘zining empirik muhitidan “begonalashadi”, ya’ni tanish dunyoni yangi, tanqidiy nuqtayi nazardan ko‘radi. Ushbu nazariyaning ekotanqid uchun ahamiyati shundaki, u fantastik adabiyotning nega ayni ekologik muammolarni masalan, butun bir sayyoraning ekotizimi yoki iqlim halokati kabi inson tasavvuriga sig‘maydigan miqyosdagi hodisalarni realistik roman janriga qaraganda samaraliroq ifodalay olishini tushuntiradi: fantastik janr o‘quvchini kundalik voqelikdan “begonalashtirib”, global ekologik jarayonlarni yangi shakl va miqyosda ko‘rish imkonini beradi.

Amerikalik adabiyotshunos Erik Otto “Yashil mulohazalar: ilmiy fantastika va o‘zgaruvchan ekologiya” (Green Speculations: Science Fiction and Transformative Environmentalism, 2012) monografiyasida aynan shu nazariy asosga tayanib, ilmiy fantastikani ekotanqidiy tahlilga jalb etadi. Otto ta’kidlashicha, “*ekologik fantastika “ekologik degradatsiyani” aks ettiradi, ba’zan oldindan bashorat qiladi, eng yaxshi namunalarida esa transformativ ekologizmni nazariylashtiradi”* (Otto E., 2012, 4). Uning tahliliga ko‘ra, Jorj R. Styuartning “Yerda yashaydiganlar” (Earth

Abides,1949), Frenk Herbertning “Dyuna” (1965), Ursula Le Guinning “Dunyoning nomi – O‘rmon” (The Word for World Is Forest, 1972), Joan Slonchevskining “Okeanga ochiladigan eshik” (A Door into Ocean,1986) va Kim Stenli Robinsonning “Mars trilogiyasi” (1993-1996) kabi asarlar ekologik falsafa va “*transformativ ekologizm*” g‘oyalarini badiiy tarzda tadqiq etadigan kanonik namunalardir.

Rus adabiyotshunosligida ekotanqid metodologiyasi G‘arbga nisbatan kechroq, asosan 2010-yillardan e’tiboran shakllana boshladi, biroq rus adabiyotining o‘zida ekologik mavzu ancha oldinroq xususan, 1970-1990-yillar “qishloq nasri” (деревенская проза) an’anasida chuqur badiiy in’ikosini topgan edi. Amerikalik slavyanshunos Ketlin Parte o‘zining “Rus qishloq nasrining porloq o‘tmishi” (Russian Village Prose: The Radiant Past,1992, Princeton University Press) fundamental tadqiqotida Valentin Rasputin, Fyodor Abramov va boshqa yozuvchilarning qishloq hayoti, an’anaviy turmush tarzi va atrof-muhitni himoya qilish g‘oyalarini qanday badiiy ifodalaganini tahlil qiladi (Parthé K., 1992, 151). Fin slavyanshunosi Mika Perkiomyaki esa 2020-yilda “Slavonica” jurnalida chop etilgan tadqiqotida Sergey Zaliyginning “Ekologik roman” (“Экологический роман,” 1993, журнал “Новый мир,” No 12) va Rasputinning “daryo prozasi”ni antroposen nazariyasi va ekologik adolat nuqtayi nazaridan tahlil qiladi (Perkiömäki M., 2020). Diqqatga sazovor jihati shundaki, Zaliyginning romani hatto sarlavhasida “ekologik” so‘zini bevosita qo‘llagan bu rus adabiyotida ekologik mavzuning o‘z-o‘zini qanchalik ilmiy-nazariy jihatdan anglaganini ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ekotanqid nazariyasi hali shakllanish bosqichida bo‘lib, bu borada so‘nggi davrda birinchi ilmiy urinishlar paydo bo‘lmoqda. Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi N.Ashurova “Ekokritisizm va zamonaviy adabiyotshunoslikda ekologik ong ifodasi” nomli maqolasida (Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2026, 6-son, 8-11-betlar) ekotanqidning shakllanish tarixi, nazariy asoslari va o‘zbek adabiyotidagi ekologik qarashlarni tahlil qiladi. Muallif, jumladan, Orol dengizi ekologik fojiasi Markaziy Osiyo hududida ekologik tafakkurni rivojlantirish zaruratini kuchaytirayotganini ta’kidlaydi (Ashurova N., 2026, 8) va Alisher Navoiy g‘azallaridagi bog‘, gul, bulbul obrazlari hamda Zahiriddin

Muhammad Boburning “Boburnoma”sidagi tabiat tasvirlarini ekotanqid nuqtayi nazaridan qayta o‘qish mumkinligini asoslaydi (Ashurova N., 2026, 10). Xuddi shu jurnal sonida chop etilgan yana bir maqola V.Alimovaning “Ekologik muammolar va spekulyativ badiiylik: cli-fi janrining estetik va axloqiy o‘lchamlari” (Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2026, 6-son, 169-bet) o‘zbek adabiyotshunosligida climate fiction janrini maxsus tadqiq etgan dastlabki ishlardan biri sifatida ahamiyatlidir (Alimova V., 2026, 169). Bu ikki tadqiqot o‘zbek adabiyotshunosligida ekotanqid metodologiyasining institutsional shakllanish jarayoni boshlanganini ko‘rsatadi.

METODLAR

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod amerika, rus va o‘zbek adabiyotidagi ekologik mazmundagi asarlarni bir-biriga qiyoslash; yaqindan o‘qish (close reading) tanlangan matnlarning janr, syujet va obrazlar tizimidagi ekologik unsurlarni tahlil qilish; tarixiy-qiyosiy metod ekotanqid nazariyasining turli milliy adabiyotshunosliklardagi shakllanish bosqichlarini solishtirishmetodlaridan foydalanildi. Korpus tanlash mezoni sifatida quyidagilar belgilandi:

1) amerika adabiyotidan ekologik mavzuni markaziy o‘ringa qo‘ygan, ekotanqid tadqiqotchilari (xususan, Erik Otto) tomonidan kanonik deb tan olingan ilmiy-fantastik asarlar;

2) rus adabiyotidan ekologik falokat yoki inson-tabiat ziddiyatini tasvirlovchi, jahon va rus adabiyotshunosligida ekotanqidiy tahlilga tortilgan asarlar;

3) o‘zbek adabiyotshunosligidan so‘nggi yillarda chop etilgan, bevosita ekotanqid terminologiyasidan foydalangan ilmiy maqolalar.

NATIJALAR

Frenk Herbertning 1965-yilda nashr etilgan “Dyuna” romani ilmiy fantastikada ekologik masalalarni markaziy o‘ringa qo‘ygan dastlabki va eng ta’sirchan asarlardan biri hisoblanadi. Roman “*quruq yer ekologlariga*” bag‘ishlangan bo‘lib, unda cho‘l sayyorasi Arrakisning noyob ekotizimi sayyorani shakllantiruvchi ulkan qum chuvalchanglari, ularning “melanj” nomli qimmatbaho moddasi va bu ekotizimning siyosiy-iqtisodiy tuzilma bilan chambarchas bog‘liqligi batafsil tasvirlanadi. Herbert asarni yozishdan oldin Oregon shtatidagi qum

tepaliklarini mustahkamlash boʻyicha davlat dasturini oʻrganish uchun jurnalistik tadqiqot olib borgan va bu tajriba romandagi “planetolog” Liet Kaynes obrazi hamda Arrakisni “koʻkalamzorlashtirish” (terraforming) gʻoyasi uchun asos boʻlgan. Romanning “Arrakis ekologiyasi” nomli ilovasi mustaqil ilmiy-badiiy matn sifatida ham qaralishi mumkin, unda ekologik tizimning bogʻliqlik zanjirlari uzoq muddatli istiqbolda koʻrsatiladi. Bosh qahramon Pol Atreydesning taqdiri sayyora ekologiyasi bilan bevosita bogʻliq boʻlib, bu Suvin nazariyasidagi “novum” bu holda, butun bir sayyora miqyosidagi ekotizim orqali ekologik tafakkurni kengaytirishning yorqin namunasidir.

Ursula Le Guinning “Dunyoning nomi – Oʻrmon” (The Word for World Is Forest, 1972) qissasi Vetnam urushi va mustamlakachilik zoʻravonligiga munosabat sifatida yozilgan boʻlib, unda Yer sayyorasidan kelgan mustamlakachilar Atshe sayyorasining oʻrmonlarini shafqatsizlarcha kesib, mahalliy aholini qulga aylantiradilar. Tadqiqotchilar bu asarni ekotanqid va allegorik tahlil chorrahasida koʻrib chiqib, Yer mustamlakachilarining harakatlarini kapitalistik ekspluatatsiya va ekologik vayronagarchilik timsoli sifatida talqin qiladilar; asar Amerika qoʻshinlarining Vetnamda “Agent Orange” defoliantidan foydalanib, millionlab akr oʻrmonni yoʻq qilgani bilan bevosita tarixiy bogʻliqlikka ega. Asar nomining oʻzi “dunyo uchun soʻz oʻrmon” mahalliy Atshe xalqining tiliga xos boʻlib, bu orqali Le Guin til, ong va ekotizim oʻrtasidagi chambarchas bogʻliqlikni koʻrsatadi, inson yoki gumanoid mavjudot tafakkurining oʻzi tabiiy muhitdan ajralmas ekanligi asarning falsafiy negizini tashkil etadi.

Kim Stenli Robinsonning Mars trilogiyasi (“Red Mars”, “Green Mars”, “Blue Mars”, 1993-1996) sayyorani bosqichma-bosqich odam yashashi mumkin boʻlgan holatga keltirish (terraforming) jarayonini, shu jarayon atrofidagi siyosiy-mafkuraviy kurashlarni ya’ni Marsni “tabiiy holida saqlash kerakmi yoki oʻzgartirish kerakmi” degan asosiy falsafiy-ekologik ziddiyatni batafsil tasvirlaydi. Muallifning keyingi asari “New York 2140” (2017) esa okean sathining koʻtarilishi natijasida qisman suv ostida qolgan Nyu-York shahri misolida climate fiction janrining yorqin namunasini yaratadi, bunda shahar osmonoʻpar binolari oʻziga xos

“orollar”ga aylanadi va odamlar o‘zgargan iqlim sharoitida yangi turmush tarzini shakllantiradilar. Robinson ijodi Erik Ottoning “Green Speculations” tadqiqotida transformativ ekologizmning eng izchil badiiy ifodalaridan biri sifatida baholanadi (Otto E., 2012).

Rus (sovet) adabiyotida ekologik ongning ikki xil fantastik va realistik badiiy ifodasini kuzatish mumkin. Aka-uka Arkadiy va Boris Strugatskiylarning 1972-yilda yozilgan “Yo‘l yoqasidagi sayr”(Пикник на обочине) romani sirli “Zona” o‘zga sayyoraliklar tashrifidan so‘ng qolgan, tabiat qonunlariga bo‘ysunmaydigan, xavfli va tushunarsiz artefaktlarga to‘la hudud atrofida quriladi. Roman 1986-yilgi Chernobil fojiasidan o‘n to‘rt yil oldin yozilgan bo‘lsa-da, undagi “Zona” tushunchasi shu qadar aniq bashorat xarakteriga ega bo‘ldiki, Chernobil AES atrofidagi radiatsiyalangan hudud xalq orasida bevosita “Zona” deb atala boshlandi, u yerga noqonuniy kiruvchilar esa romandagi “stalker” so‘zi bilan nomlana boshlandi. Bu holat fantastik adabiyotning ekologik xavf-xatarni jamiyat ongida oldindan shakllantirish, kelajakdagi ekologik falokatlarni til va tasavvur darajasida “tayyorlab qo‘yish” funksiyasini yorqin namoyish etadi bu, o‘z navbatida, Suvin va Ottoning kognitiv begonalashuv nazariyasini amaliy tasdiqlaydi.

Valentin Rasputinning “Matera bilan vidolashuv” (“Прощание с Матёрой”, 1976) qissasi rus “qishloq nasri” (деревенская проза) an’anasining eng yorqin namunasi bo‘lib, unda Angara daryosi bo‘yidagi Matyora oroli-qishlog‘i gidroelektr stansiyasi qurilishi tufayli suv ostida qoldirilishi arafasidagi so‘nggi yoz voqealari tasvirlanadi. Asar realistik uslubda yozilgan bo‘lsa-da, unda tabiat orol, daryo, qadimiy daraxt, “Xo‘jayin” nomli afsonaviy ruh passiv fon emas, balki faol, deyarli ovozga ega ekologik subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ketlin Parte ta’kidlashicha, qishloq nasri yozuvchilari “*kollektivlashtirilgan qishloq xo‘jaligiga qarshi chiqqanlar va an’anaviy san’at-me’morchilikni hamda atrof-muhitni himoya qilish uchun kurashganla*r” (Parthé K., 1992, 151). Sergey Zalyginning “Ekologik roman” (1993) asari esa bosh qahramoni gidrolog olim Golubev bo‘lgan roman sarlavhasining o‘zidayoq ekologik muammoni bevosita e’lon qiladi va Sibirdagi daryo va suv resurslari muammosini, sovet davridagi yirik gidrotexnik loyihalarning

ekologik oqibatlarini ochiq tanqidiy ruhda tasvirlaydi. Rasputin va Zaliygin asarlari, garchi janr jihatidan fantastikaga emas, realistik prozaga mansub bo‘lsa-da, ekotanqid nuqtayi nazaridan Buellning “ekologik roman” mezonlariga ya’ni, *tabiatning markaziy o‘rni, inson mas’uliyati, matnning real ekologik muammoni aks ettirishiga* to‘liq javob beradi (Buell L., 1995, 7-8).

So‘nggi o‘n besh yil ichida ilmiy fantastika ichida alohida kichik janr “climate fiction” (qisqartirilgan shakli “cli-fi”) shakllandi. Bu janrga Kormak Makkartining “Yo‘l” (The Road, 2006), Barbara Kingsolverning “Parvozdagi xulq-atvor” (Flight Behavior, 2012), Paolo Bachigalupining “Burama qiz” (The Windup Girl, 2009) va Richard Paursning daraxtlar hamda inson hayoti o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni tasvirlovchi “Daraxtlar rivoyati” (The Overstory, 2018, Pulitser mukofoti laureati) kabi asarlar kiradi. N.Ashurova ta’kidlaganidek, bunday asarlarda “*global isish, ekologik falokat, tabiiy ofatlar, postapokaliptik dunyo, inson va tabiat ziddiyati asosiy mavzuga aylanadi*” (Ashurova N., 2026, 9). V.Alimovaning maxsus tadqiqoti esa aynan shu janrning cli-fi ning estetik va axloqiy o‘lchamlarini o‘zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo‘lib maxsus tadqiq etadi (Alimova V., 2026, 169), bu esa mazkur janrning nafaqat g‘arb, balki markaziy osiyolik tadqiqotchilar e’tiborini ham tortayotganini ko‘rsatadi.

MUNOZARA

Tahlil qilingan barcha asarlar shuni tasdiqlaydiki, fantastik va spekulyativ adabiyot ekologik muammolarni badiiy ifodalashda o‘ziga xos, boshqa janrlarga nisbatan ustunroq imkoniyatga ega. Bu ustunlik, birinchi navbatda, Suvin ta’riflagan “kognitiv begonalashuv” mexanizmi bilan bog‘liq: fantastik janr o‘quvchini kundalik voqelikdan uzoqlashtirib, ekologik jarayonlarni ular odatda sekin, ko‘zga ko‘rinmas yoki geologik miqyosda kechganligi sababli yangi, ko‘rinadigan va hissiy jihatdan ta’sirchan shaklda taqdim etish imkonini beradi. Aynan shu sababdan Gosh realistik roman janrining iqlim inqirozini aks ettirishdagi “ojizligi”ni tanqid qiladi (Ghosh A., 2016, 9), Herbert, Le Guin va Robinson kabi fantastika yozuvchilari esa aynan shu “tasavvur bo‘shlig‘i”ni muvaffaqiyatli to‘ldiradilar.

Qiyosiy tahlil yana bir muhim farqni ochib beradi: agar amerika an’anasida ekologik mazmun ko‘proq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy-fantastik janr orqali (Herbert, Le Guin, Robinson) ifodalangan bo‘lsa, rus an’anasida ekologik mazmun ikkiga bo‘linadi bir tomondan fantastika (Strugatskiylar), ikkinchi tomondan esa realistik “qishloq nasri” va bevosita “ekologik roman” deb nomlangan janr (Rasputin, Zaliygin). Bu farq ikki adabiy tizimning janr ierarxiyasidagi farqni aks ettiradi: sovet adabiyotida ilmiy fantastika ko‘pincha “yengil” janr sifatida qaralib, ekologik-falsafiy chuqur mazmun ko‘proq “jiddiy” realistik prozaga yuklatilgan, amerika adabiy bozorida esa ilmiy fantastika XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jiddiy falsafiy-ijtimoiy tanqidning to‘liq huquqli vositasiga aylangan.

Amerika adabiyotshunosligida ekotanqid 1990-yillardan boshlab to‘liq institutsionallashgan yo‘nalish (ixtisoslashgan jurnallar ISLE, assotsiatsiyalar ASLE, universitet kurslari) bo‘lsa, rus adabiyotshunosligida bu jarayon 2010-yillardan boshlanib, hozircha alohida ilmiy jurnal va tizimli maktab darajasiga yetib bormagan, garchi “Ekopoezis” kabi eko-gumanitar jurnallar va Perkiomyaki kabi tadqiqotchilarning ishlari mavjud bo‘lsa-da. O‘zbek adabiyotshunosligida esa, Ashurova va Alimovaning 2026 yilgi maqolalari ko‘rsatganidek, ekotanqid metodologiyasi endigina so‘nggi bir-ikki yil ichida ilk bor tizimli tarzda ilmiy muomalaga kiritilmoqda. Bu uch bosqichli farq (institutsionallashgan shakllanayotgan endi boshlanayotgan) ekotanqid nazariyasining madaniyatlararo tarqalish dinamikasini yaqqol namoyon etadi.

Alisher Navoiy va Bobur kabi mumtoz adiblarning tabiat tasvirlari, shuningdek Orol dengizi fojiasi bilan bog‘liq zamonaviy o‘zbek adabiyoti ekotanqid metodologiyasi uchun boy tadqiqot maydonini taqdim etadi (Ashurova N., 2026, 8, 10). Bunga qo‘shimcha ravishda, o‘zbek fantastika va ilmiy-fantastika janrining o‘zi garchi bu tadqiqotda alohida ob’ekt sifatida ko‘rib chiqilmagan bo‘lsa-da kelgusida Alimova ochgan yo‘nalishni (Alimova V., 2026, 169) davom ettirib, milliy sharoitga xos ekologik muammolarni (masalan, Orol dengizi, Amudaryo-Sirdaryo suv resurslari, cho‘llanish) badiiy fantastika tilida qayta tasavvur qilishning istiqbolli manbai bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Ekotanqid nazariyasi Glotfelti va Buellning asosiy ta’riflari, Garrardning pastoral/wilderness tahlili, Suvinning kognitiv begonalashuv va novum nazariyasi, Iovino-Oppermannning moddiy ekotanqidi hamda Goshning iqlim-tasavvur inqirozi kontseptsiyasi badiiy adabiyotni, xususan fantastik va spekulyativ janrni, tahlil qilishning samarali va istiqbolli metodologik vositasi ekanligini mazkur tadqiqot yana bir bor tasdiqladi. Amerika fantastik adabiyotida Frenk Herbert, Ursula Le Guin va Kim Stenli Robinson kabi yozuvchilar ekologik falsafani badiiy tasavvur qilishning kanonik namunalarini yaratgan bo‘lsalar, rus adabiyotida bu vazifani ham fantastika (Strugatskiy birodarlar), ham realistik “ekologik roman” (Rasputin, Zalygin) baravar bajargan.

Fantastik adabiyotning kognitiv begonalashuv orqali ekologik muammolarni alohida ta’sirchan tarzda ifodalash imkoniyati, o‘z navbatida, o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham milliy fantastika korpusini ekotanqid nuqtai nazaridan o‘rganishning istiqbolli yo‘nalish ekanligini asoslaydi.

Xulosa qilib aytganda, ekotanqid hali ham nisbatan yosh, ammo tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan adabiy-nazariy paradigma sifatida nafaqat g‘arb adabiyotshunosligining, balki rus va o‘zbek adabiyotshunosligining ham istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylanish salohiyatiga ega. Bu borada milliy adabiy meros (mumtoz adabiyotdagi tabiat obrazlaridan tortib, zamonaviy ekologik-ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi asarlargacha) ekotanqid metodologiyasi yordamida yanada tizimli va chuqur o‘rganilishi jahon ekotanqid nazariyasiga ham Markaziy Osiyo tajribasidan kelib chiqadigan o‘ziga xos nazariy hissa qo‘shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimova, V. B. Ekologik muammolar va spekulyativ badiiylik: cli-fi janrining estetik va axloqiy o‘lchamlari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2026. – № 6 (4). – B. 169-176.
2. Ashurova, N. A. Ekokritisizm va zamonaviy adabiyotshunoslikda ekologik ong ifodasi // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2026. – № 6 (4). – B. 8–11.
3. Atwood, M. The Handmaid’s Tale. – Toronto: McClelland & Stewart, 1985. – 324 p.
4. Bacigalupi, P. The Windup Girl. – San Francisco: Night Shade Books, 2009. – 361 p.
5. Buell, L. The Environmental Imagination: Thoreau, Nature Writing, and the Formation of American Culture. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1995. – 586 p. – DOI: 10.4159/9780674262423.
6. Buell, L. The Future of Environmental Criticism: Environmental Crisis and Literary Imagination. – Malden, MA: Blackwell Publishing, 2005. – 208 p.
7. Garrard, G. Ecocriticism. – London; New York: Routledge, 2004. – 203 p.
8. Ghosh, A. The Great Derangement: Climate Change and the Unthinkable. – Chicago: University of Chicago Press, 2016. – 284 p. – DOI: 10.7208/chicago/9780226323176.001.0001.
9. Glotfelty, C., Fromm, H., eds. The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology. – Athens: University of Georgia Press, 1996. – 415 p.
10. Herbert, F. Dune. – Philadelphia: Chilton Books, 1965. – 412 p.
11. Iovino, S., Oppermann, S., eds. Material Ecocriticism. – Bloomington: Indiana University Press, 2014. – 368 p. – DOI: 10.2307/j.ctt16gzq85.
12. Kingsolver, B. Flight Behavior. – New York: HarperCollins, 2012. – 436 p.
13. Le Guin, U. K. The Word for World Is Forest. – New York: Berkley Books, 1972.–128p.
14. McCarthy, C. The Road. – New York: Alfred A. Knopf, 2006. – 241 p.
15. Meeker, J. W. The Comedy of Survival: Studies in Literary Ecology. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1972. – 217 p.
16. Otto, E. C. Green Speculations: Science Fiction and Transformative Environmentalism. – Columbus: Ohio State University Press, 2012. – 152 p. – DOI: 10.2307/j.ctv1725r2z.

17. Parthé, K. F. Russian Village Prose: The Radiant Past. – Princeton: Princeton University Press, 1992. – 194 p. – DOI: 10.1515/9781400820757.
18. Perkiömäki, M. The Anthropocene on Planet Water: Competing Views on Rivers and Geography in Sergei Zalygin's Ekologicheskii roman // Slavonica. – 2020. – Vol. 25, № 1. – P. 1–24. – DOI: 10.1080/13617427.2020.1754570.
19. Powers, R. The Overstory. – New York: W. W. Norton & Company, 2018.–502p.
20. Распутин, В. Прощание с Матёрой // Наш современник. – 1976. – № 10–11.
21. Robinson, K. S. Red Mars. – New York: Bantam Spectra, 1993.
22. Robinson, K. S. Green Mars. – New York: Bantam Spectra, 1994.
23. Robinson, K. S. Blue Mars. – New York: Bantam Spectra, 1996.
24. Robinson, K. S. New York 2140. – New York: Orbit Books, 2017. – 624 p.
25. Rueckert, W. Literature and Ecology: An Experiment in Ecocriticism // Iowa Review. – 1978. – Vol. 9, № 1. – P. 71–86.
26. Shiva, V., Mies, M. Ecofeminism. – London: Zed Books, 1993. – 328 p.
27. Стругацкий, А. Н., Стругацкий, Б. Н. Пикник на обочине. – Москва: Молодая гвардия, 1972.
28. Suvin, D. Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre. – New Haven: Yale University Press, 1979. – 317 p.
29. Залыгин, С. Экологический роман // Новый мир. – 1993. – № 12.
30. Kuchimov, Ulugbek Kuchkarovich, Shakhnoza Azimboyevna Yuldoshova, and Dilfuza Zokirovna Rasulmukhamedova. "Theoretical Foundations And Methodology Of Comparative Literature." European Review of Contemporary Arts and Humanities 2.8 (2026): 31-37.
31. Azimboyevna, Yuldoshova Shaxnoza. "Edgar Allan Poe va uning adabiy uslubining zamonaviy amerika ilmiy-fantastik adabiyotiga ta'siri."" Alfraganus" xalqaro Ilmiy Jurnali (2026): 56-66
32. Kuchimov, Ulugbek Kuchkarovich, Shakhnoza Azimboyevna Yuldoshova, and Dilfuza Zokirovna Rasulmukhamedova. "Psychological Realism And Dystopian Vision In Ray Bradbury's Works."European Review of Contemporary Arts and Humanities 2.8 (2026): 52-57.

REFERENCES:

1. Alimova, V. B. (2026). Ekologik muammolar va spekulyativ badiiylik: Cli-fi janrining estetik va axloqiy o‘lchamlari [Ecological problems and speculative fiction: Aesthetic and ethical dimensions of the cli-fi genre]. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, (6), 169–176.
2. Ashurova, N. A. (2026). Ekokritisizm va zamonaviy adabiyotshunoslikda ekologik ong ifodasi [Ecocriticism and the expression of ecological consciousness in contemporary literary studies]. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, (6), 8–11.
3. Atwood, M. (1985). The handmaid’s tale. McClelland & Stewart.
4. Bacigalupi, P. (2009). The windup girl. Night Shade Books.
5. Buell, L. (1995). The environmental imagination: Thoreau, nature writing, and the formation of American culture. Harvard University Press. https://doi.org/10.4159/9780674262423
6. Buell, L. (2005). The future of environmental criticism: Environmental crisis and literary imagination. Blackwell Publishing.
7. Garrard, G. (2004). Ecocriticism. Routledge.
8. Ghosh, A. (2016). The great derangement: Climate change and the unthinkable. University of Chicago Press. https://doi.org/10.7208/chicago/9780226323176.001.0001
9. Glotfelty, C., & Fromm, H. (Eds.). (1996). The ecocriticism reader: Landmarks in literary ecology. University of Georgia Press.
10. Herbert, F. (1965). Dune. Chilton Books.
11. Iovino, S., & Oppermann, S. (Eds.). (2014). Material ecocriticism. Indiana University Press. https://doi.org/10.2307/j.ctt16gzq85
12. Kingsolver, B. (2012). Flight behavior. HarperCollins.
13. Le Guin, U. K. (1972). The word for world is forest. Berkley Books.
14. McCarthy, C. (2006). The road. Alfred A. Knopf.
15. Meeker, J. W. (1972). The comedy of survival: Studies in literary ecology. Charles Scribner’s Sons.

16. Otto, E. C. (2012). Green speculations: Science fiction and transformative environmentalism. Ohio State University Press. https://doi.org/10.2307/j.ctv1725r2z
17. Parthé, K. F. (1992). Russian village prose: The radiant past. Princeton University Press. https://doi.org/10.1515/9781400820757
18. Perkiömäki, M. (2020). The Anthropocene on Planet Water: Competing views on rivers and geography in Sergei Zalygin's Ekologicheskii roman. Slavonica, 25(1), 1–24. https://doi.org/10.1080/13617427.2020.1754570
19. Powers, R. (2018). The overstory. W. W. Norton & Company.
20. Распутин, В. (1976). Прощание с Матёрой. Наш современник, (10–11).
21. Robinson, K. S. (1993). Red Mars. Bantam Spectra.
22. Robinson, K. S. (1994). Green Mars. Bantam Spectra.
23. Robinson, K. S. (1996). Blue Mars. Bantam Spectra.
24. Robinson, K. S. (2017). New York 2140. Orbit Books.
25. Rueckert, W. (1978). Literature and ecology: An experiment in ecocriticism. Iowa Review, 9(1), 71–86.
26. Shiva, V., & Mies, M. (1993). Ecofeminism. Zed Books.
27. Стругацкий, А. Н., & Стругацкий, Б. Н. (1972). Пикник на обочине. Молодая гвардия.
28. Suvin, D. (1979). Metamorphoses of science fiction: On the poetics and history of a literary genre. Yale University Press.
29. Залыгин, С. (1993). Экологический роман. Новый мир, (12).
30. Kuchimov, U. K., Yuldoshova, S. A., & Rasulmukhamedova, D. Z. (2026). Theoretical Foundations And Methodology Of Comparative Literature. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(8), 31-37.
31. Azimboyevna, Y. S. (2026). Edgar Allan Poe va uning adabiy uslubining zamonaviy amerika ilmiy-fantastik adabiyotiga ta'siri. "Alfraganus" xalqaro Ilmiy Jurnali, 56-66.
32. Kuchimov, U. K., Yuldoshova, S. A., & Rasulmukhamedova, D. Z. (2026). Psychological Realism And Dystopian Vision In Ray Bradbury's Works. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(8), 52-57.